

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Shermuhammadov, B.Qurbonova</b>	
Hamkorlikdagi faoliyat treningini o'tkazish usullari.....	9
<b>T.Egamberdieva, N.Gafurova</b>	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda gender tengligi masalalari .....	13
<b>N.O'rinova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyalari .....	17
<b>I.Siddiqov</b>	
Aralash ta'lim – bo'lajak tarixchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida .....	21
<b>M.Barakayev, X.O'rinov</b>	
Matematika o'qituvchisi tayyorlash metodik sistemasining nazariy jihatlar.....	26
<b>X.Umarov</b>	
O'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirish tuzilmasi va komponentlari .....	31
<b>N.Xodjibolayeva</b>	
Talabalarda ekologik kompetentlikni shakllantirishda Abdurauf Fitratning ijtimoiy-ekologik qarashlarining ahamiyati .....	39
<b>S.Uraimov</b>	
Kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichlarining pedagogik tahlili .....	44
<b>D.Malikova</b>	
Ta'lim makonida madaniy muhitning tarixiy omillari.....	48
<b>A.G'ofurov</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish tizimi.....	51
<b>I.Sharofutdinov</b>	
Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish .....	59
<b>J.Qurbonov</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual madaniyatni rivojlantirishning integrativ ta'lim texnologiyalari.....	65
<b>M.G'ofurova</b>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida tadqiqot metodlarini qo'llashning samaralari .....	69
<b>G.Maxsudova</b>	
O'quvchilarda ekosavodxonlikni shakllantirishning rivojlantirishda milliy ma'naviy qadriyatlarining ahamiyati .....	74
<b>V.G'aniyeva</b>	
O'yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi .....	78
<b>Sh.Karimova</b>	
Talabalarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ishlarni tashkil etishning lokal-modulli texnologiyasi .....	82
<b>F.Raximova</b>	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bo'lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish tizimini takomillashtirish muammolari .....	85
<b>D.Rafikova, Z.Ibroximova</b>	
Ta'limni modernizatsiyalash jarayonida smart texnologiyalardan foydalanishning istiqbollari va muammolari.....	88
<b>U.Abduraximova</b>	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish pedagogik-psixologik asoslari .....	92

**YANGI O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARING IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISHDA  
GENDER TENGLIK MASALALARI**

**ВОПРОСЫ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В ПОВЫШЕНИИ СОЦИАЛЬНОЙ  
АКТИВНОСТИ ЖЕНЩИН В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ**

**GENDER EQUALITY ISSUES IN INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF WOMEN IN  
NEW UZBEKISTAN**

**Egamberdieva Turg'unoy Axmadjonovna<sup>1</sup>, Gafurova Nodira Ravshanovna<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>Egamberdieva Turg'unoy Axmadjonovna

– Farg'ona davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori, Farg'ona davlat universiteti qoshidagi Gender tengligi tadqiqotlar markazi rahbari.

<sup>2</sup>Gafurova Nodira Ravshanovna

– Farg'ona davlat universiteti, Chet tillar fakulteti katta o'qituvchisi, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Farg'ona davlat universiteti qoshidagi Gender tengligi tadqiqotlar markazi ekspert tarjimoni,

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada Yangilanayotgan O'zbekiston davrida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini, oila barqarorligini mustahkamlashning ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy asoslari yaratilganligini, xotin-qizlarning huquqiy manfaatlarini himoya qilish, ularga mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan imkoniyatlardan keng foydalanish masalalari haqida so'z yuritilgan. Mamlakatimizning yangi rivojlanish bosqichida jamiyatda gender tenglikni ta'minlashning huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini mustahkamlash borasida bir qator islohotlar amalga oshirilganligi va ularning natijalarini, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun va gender tenglikning jamiyatda rolini oshirish uchun quyidagilarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlanib o'tilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье в эпоху обновления Узбекистана утверждается, что духовно-просветительская, социально-экономическая и правовая основа повышения общественно-политической и общественной активности женщин, укрепления их способностей и возможностей в различных сферах и отраслях, также обсуждались вопросы семейной стабильности, защиты законных интересов женщин, широкого использования возможностей, созданных в экономике страны. На этапе нового развития в нашей стране осуществлен ряд реформ, направленных на укрепление правовых, социально-экономических основ обеспечения гендерного равенства в обществе, и в целях дальнейшего расширения прав уместно обратить внимание на следующее: возможности женщин и повышение роли гендерного равенства в обществе.*

**Abstract**

*In this article, in the era of renewing Uzbekistan, it is stated that the spiritual, educational, social, economic and legal basis for increasing the socio-political and social activity of women, strengthening their abilities and opportunities in various fields and industries, family stability, protecting the legal interests of women, issues of wide use of the opportunities created in the country's economy were discussed. At the stage of new development in our country, a number of reforms have been implemented to strengthen the legal, socio-economic foundations of ensuring gender equality in society, and it is appropriate to pay attention to the following in order to further expand the rights and opportunities of women and to increase the role of gender equality in society. passed.*

**Kalit so'zlar:** xotin-qizlar, ma'naviyat, ma'rifat, siyosat, jamiyat, huquqiy, oila, onalik, zo'ravonlik, madaniyat, qobiliyat, vazifa, parlament, mahalliy kengashlar.

**Ключевые слова:** женщины, духовность, просвещение, политика, общество, правовой, семья, материнство, насилие, культура, способности, задача, парламент, местные советы.

**Key words:** women, spirituality, enlightenment, politics, society, legal, family, motherhood, violence, culture, ability, task, parliament, local councils.

**KIRISH**

Yangilanayotgan O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi mavqeyini yuksaltirish, ularning ijtimoiy-siyosiy islohotlardagi ishtirokini ta'minlash, oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, oila institutini qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifaga aylandi. Yurtimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini, huquqiy va tibbiy madaniyatini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqarish, ayniqsa, o'smir qizlarni ilm-ma'rifatli, jismonan va ma'nan barkamol qilib tarbiyalash borasida oldimizda muhim hayotiy vazifalar borligi, shu maqsadda hamkorlikdagi faoliyatimizni

kuchaytirish zarurligi haqida soʻz yuritildi. Joylarda mavjud muammolarni bartaraf etish, oilalar mustahkamligini taʼminlash, komil farzandlarni voyaga yetkazish, oʻz salohiyati, qobiliyati bilan oilasi va yurt farovonligiga munosib hissa qoʻshish ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini ifodalaydi, albatta. Boshqacha aytganda, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini taʼminlash yurt ravnaqi va jamiyat hayotida hal qiluvchi omillardan biri sanaladi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda oʻz qobiliyat va imkoniyatlarini, oila barqarorligini mustahkamlashning maʼnaviy-maʼrifiy, ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy asoslari yaratilganligidan kelib chiqib, xotin-qizlarning huquqiy manfaatlarini himoya qilish, ularga mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan imkoniyatlarni kengaytirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Mamlakat iqtisodiyotida xotin-qizlarga nisbatan turli xildagi tazyiqlar va ularning kamsitilishini bartaraf etish, ularning teng huquqli ekanligini taʼminlash muhim ahamiyat kasb etadi. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 46-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar” deb koʻrsatib oʻtilgan. Bunga koʻra xotin-qizlarning taʼlim olishi, kasbiy tayyorlanishi, ishlashi va ularning mehnatini ragʻbatlantirilishi borasida erkaklar bilan teng huquqiy imkoniyatga egaliklari koʻrsatib oʻtilgan.

Ayniqsa, bugungi kunda xotin-qizlarga boʻlgan munosabatlarning davlat tomonidan tartibga solinishida ularning huquqiy-meʼyoriy asoslarini qayta tartiblashtirish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kafolatlar berish va boshqa vositalar orqali ularning huquqlarini va imkoniyatlarini oʻrganish, gender tenglikning chuqur mazmun mohiyatini keng ommaga yetkazish borasida olib borilayotgan islohotlar bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

1967-yil 7-noyabrda BMT bosh Assambleyasining Ayollarga nisbatan kamsitishlarni bartaraf etish Butunjahon deklaratsiyasi qabul qilinib, uning 1-moddasida “Ayollarga nisbatan kamsitish, ularning erkaklar bilan teng huquqliligini rad etish yoki cheklashga olib keladigan holatlar qayd etilsa oʻz mohiyatiga koʻra adolatsizlik boʻlib, inson qadr-qimmatiga qarshi jinoyat sodir etilganligi, 1985-yilda BMT Xotin-qizlarning ahvoli boʻyicha 3 Butunjahon Konferensiyasini oʻtkazilib, bunda jinslarning tengligi muammolariga kompleks yondashuv masalasini kun tartibiga qoʻyildi, 1995-yilda Pekinda BMT Xotin-qizlarning ahvoli boʻyicha 4 Butunjahon Konferensiyasi boʻlib oʻtdi va unda Oʻzbekiston ilk bor ishtirok etdi. Bunda gender tengligi masalasi birinchi oʻringa koʻtarildi.

BMT Xotin-qizlarning ahvoli boʻyicha 1985-yilda 3 Butunjahon Konferensiyasini oʻtkazdi, bunda jinslarning tengligi muammolariga kompleks yondashuv masalasini kun tartibiga qoʻyildi va natijada Daniyada boshqaruv tizimida 48 % ayollar boshqaruv mansablarini egalladi, Angliya va Shvetsiyada xam bu koʻrsatkichlar 50% yaqinlashdi, Islom davlatlari ichida Misr ayollar muammolari bilan shugʻullanadigan vazirlik, milliy kengash joriy qildi va yaxshi koʻrsatkichlarga erishdi.

Oʻzbekiston Respublikasida ham bugungi kunda bu borada qator meʼyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ayniqsa, 2019-yil 7-martda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlashga oid choratadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-4235-son qarori, 2019-yil 2-sentyabrda “Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonliklardan himoya qilish toʻgʻrisida”gi OʻRQ-561-son Oʻzbekiston Respublikasining qonuni va “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari toʻgʻrisida”gi OʻRQ-562-son qonunlarining qabul qilinganligi mamlakatimizda xotin-qizlarning huquqlari himoya qilish borasida muhim ahamiyat kasb etdi.

Buning natijasida Yangi Oʻzbekiston Respublikasida ayol huquqlari boʻyicha erishilgan natijalarga xotin-qizlarning parlamentdagi va mahalliy kengashlardagi vakilligi oshirilganligini, davlat boshqaruvining mahalliy organlariga, tuman hokimlari lavozimlariga ayollar tayinlana boshlanganligini, parlament yuqori palatasida gender tengligi masalalari boʻyicha ishchi organlar tashkil etilganligini, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini taʼminlash maqsadida 2020-2030 yillarga moʻljallangan Gender strategiyasi tayyorlanganligi, gender tengligini taʼminlashga qaratilgan qonunchilik takomillashtirilganligi, butun mamlakat miqyosida zoʻravonlik jabrdiydalariga yordam koʻrsatuvchi xotin-qizlarning reabilitatsiya markazlari faoliyat koʻrsata boshlaganligi va shu kabi bir qator ijobiy natijalarga erishilganligini keltirib oʻtish mumkin.

Yuqoridagi qabul qilingan qaror va qonunlarda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida gender tenglikka xos boʻlmagan barcha taqiqlar olib tashlash imkoniyati paydo boʻldi. Ayniqsa, bugungi kungacha jamiyatimizda uchrab kelayotgan erkaklar va

## PEDAGOGIKA

ayollarning huquqlari hamda erkinliklarini kamaytirishga yoki tan olmaslikka qaratilgan har qanday tarzda farqlash, istisno etish yoki cheklash jinsi bo'yicha bevosita kamsitish, sirdan xolis bo'lib tuyuladigan, biroq bir jinsdagi shaxslarni boshqa jinsdagi shaxslarga nisbatan noqulayroq holatga tushirib qo'yadigan vaziyatlar, holatlar, mezonlar yoki amaliyotlar esa jinsi bo'yicha bilvosita kamsitish sifatida ya'ni zo'ravonlik holatlari uchrab kelayotgan edi.

Biz bilamizki, zo'ravonlik bu xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralarini qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakatlardir.

Birgina oilaviy zo'ravonlikni misol keltirsak, uni jismoniy, psixologik, iqtisodiy, jinsiy, separatsion va reproduktiv turlari mavjud bo'lib, bu zo'ravonlik turlari orqali xotin-qizlarga nisbatan tazyiq qilib kelinar edi.

Bizning milliy mentalitetimizdan kelib chiqib, bu zo'ravonlik holatlari turmush o'rtog'ining rashki, oiladagi muhitga faqat ayol kishi mas'ul, erni er qiladigan ham, qaro yer qiladigan ham ayol, uydagi gapni tashqariga chiqarma, oilaviy ishga begonalarining oila uchun aralashuvi faqat zarar kabi naqlar bilan xaspo'shlab kelingan. Doimiy holatda oiladagi ruhiy bosimga faqat ayolning o'zi sababchi bo'lib kelgan.

Oilali bekalarga bu holatlar bizning milliyligimiz, uning uyati, or-nomusi ustunlik qilgan. Ota-ona tomonidan esa "Men senga aytgan edim", "meni aralashirma, baribir yarashib ketasizlar", "Nimaga menga atyapsan" kabi iboralarning ishlatilishi hech kimga sir emas. Vaholanki, oilaning barqarorligi, uning moddiy ta'minoti va yashash turmush tarzi uchun har ikkalasi er va xotin teng huquqli javobgardirlar.

Mamlakatimiz yangi rivojlanish bosqichida jamiyatda gender tenglikni ta'minlashning huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini mustahkamlash borasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda "Erkaklar va ayollarning teng huquqlari va imkoniyatlari kafolatlari to'g'risida" hamda "Ayollarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlarni qabul qilish" zarurligi belgilanganligi dolzarb ahamiyatga ega.

Mustaqil O'zbekistonimizda turli vazifalarda faoliyat ko'rsatgan va ko'rsatayotgan xotin-qizlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati raisi, sotsiologiya fanlari doktori Tanzila Narbaeva, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qoshidagi inson huquqlari tashkiloti – Ombudsman rahbari Feruza Eshmatova, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi raisi M.A.Qodirxonova kabilar jamiyat intellektual hayotining yuksalishiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

2020-yil 28-dekabrda FarDU ilmiy kengashi qarori bilan "Gender tengligi tadqiqot markazi" o'z faoliyatini boshlab jamoatchilik asosida ishlamoqda. Markaz faoliyati o'z Nizomi va "Yo'l xaritasi"ga binoan Farg'ona vodiysi OTMlarida tahliliy-tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqda. O'tgan davrda besh marotaba 10 ta yo'nalish bo'yicha sektor, guruh rahbarlarini, 27 kishidan iborat Kengash a'zolari ishtirokida 5 ta ekspertlar yig'ilishi, 4 ta xalqaro onlayn konferensiya va 1 ta seminar-trening bo'lib o'tdi.

Demak, bugungi kunda mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida gender tengligini ta'minlashga doir islohotlarni yanada jadallashtirish, bu boradagi ilmiy izlanishlarni muvofiqlashtiruvchi markazlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash ehtiyoji ortib bormoqda. Darhaqiqat, O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti yillarida o'zbek ayoli o'zining yuqori ijtimoiy mavqeyiga ega bo'ldi va bu jarayon takomillashib bormoqda.

Tahlillar borasida Farg'ona vodiysidagi eng yirik oliygohlar bo'lmish Farg'ona, Andijon va Namangan davlat universitetlaridagi umumiy ilmiy salohiyat va undagi xotin-qizlar ulushi kamligicha qolmoqda.

Bugungi kunda Andijon davlat universitetida 817 nafar professor-o'qituvchi faoliyat olib borayotgan bo'lib, ularning 238 nafari ilmiy darajaga ega. Ular orasida xotin-qizlarning 20,6% ilmiy darajaga ega xolos.

Namangan davlat universiteti jamoasining deyarli 35 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Tahsil olayotgan talabalarning 60 foizi qizlardan iborat. Ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, talabalar bilim olishi, talabalar turar joylarida sog'lom muhitni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Namangan davlat universitetida faoliyat ko'rsatuvchi xotin-qizlarning 10,1% ilmiy darajaga ega xolos.

Farg'ona davlat universitetida bugungi kunda 783 nafar professor o'qituvchi faoliyat olib borayotgan bo'lsa, ularning 61%ni xotin-qizlar tashkil etmoqda. FarDUdagi umumiy ilmiy darajalar professor-o'qituvchilar soni 231 nafar bo'lsa, ularning 89 nafarini xotin-qizlar tashkil qilib, ular orasida 6 nafar fan doktori, professor, 83 nafari fan nomzodi, falsafa doktorlari (PhD) hisoblanadi. Bu ko'rsatkich esa Farg'ona davlat universitetidagi umumiy ilmiy darajalilarning 44,2 foizi xotin-qizlardan iborat ekanligini anglatadi.

### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ushbu yo'nalishda davomiy izchil ishlarni amalga oshirish talab etiladi. Qolaversa, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirok etishini ta'minlash bo'yicha ishlarni izchil davom ettirish zarur. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun va gender tenglikning jamiyatda rolini oshirish uchun quyidagilarga e'tiborni qaratsak maqsadga muvofiq bo'lardi:

- Xotin-qizlarni kamsitish, ulardagi zo'ravonlik holatlaridan yiroqlashish maqsadida jamoatchilikning xotin-qizlarga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish zarur;
- Zo'ravonlik holatlarini vaqtida aniqlash mexanizmini ishlab chiqish;
- Zo'ravonlik holatiga nisbatan chora ko'rish, ya'ni muammo bilan bog'liq bo'lgan shaxslarga barcha daxldor tashkilotlarning zo'ravonlik holatiga nisbatan ma'muriy va boshqa zarur munosabat o'z vaqtida bildirishiga erishish;
- Mahalla, ichki ishlar, sog'likni saqlash muassasalari, rehabilitatsiya markazi hamkorligini yanada takomillashtirishga erishish;
- Mahallalarda nosog'lom oilalarga ijtimoiy-psixologik xizmatlar ko'rsatish salmog'ini oshirishga erishish;
- "Har bir oila tadbirkor" loyihasini yanada takomillashtirish;
- Yosh oilalarni tuzishda psixologik so'rovlar o'tkazish samaradorligini oshirishga erishish.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquq va imkoniyatlari kafolatlari to'g'risida"gi qonuni, 2.09.2019 y. 562-son O'RQ. Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiqlar va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" qonuni 2.09.2019 y. 561-son O'RQ. Lex.uz.
3. "Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotga kirish" to'plami. –T.: Fan nashriyoti, 2007 – 105 b.
4. "Zo'ravonlikdan jabrlanganlar huquqlarini himoya qilish va zo'ravonlikni oldini olish". Uslubiy qo'llanma. Shaxzoda Alisherovna Pulatova, Alisher Sharofxonovich Murodov. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Huzuridagi "Oila" ilmiy- amaliy markazi, –T.: Sharq, 2019 – 143 b.
5. Oiladagi zo'ravonlik jabrdiydalari uchun xizmatlarni taqdim etish va zo'ravonlik holatlariga javob berish tizimini tashkil qilish standartlari. «ANNA» axborot- metodik markazi, Marina Pisklakova, Parker va Andrey Sinelnikov tahriri ostida, –M.: 2015 – 13 b.